

Date: 23rd January-2026

**IMKONIYATI CHEKLANGAN O'QUVCHILARGA TIKUVCHILIK HUNARINI
O'RGATISHDA ISHLAB CHIQUARISH TA'LIMI USTASINING ZAMONAVIY
YONDASHUVLARI**

Gaibnazarova Muqaddas Olimovna

Respublika imkoniyati cheklangan shaxslar
uchun ixtisoslashtirilgan maxsus texnikumi
ishlab chiqarish ta'limi ustasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada imkoniyati cheklangan o'quvchilarga tikuvchilik hunarini o'rgatishda ishlab chiqarish ta'limi ustasining zamonaviy pedagogik, psixologik va texnologik yondashuvlari keng yoritilgan. O'quvchilarning individual imkoniyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda moslashtirilgan o'quv metodlari, amaliy mashg'ulot-larni samarali tashkil etish, raqamli texnologiyalarni qo'llash, xavfsizlikni ta'minlash, motivatsiyani kuchaytirish hamda inklyuziv ta'lim muhitini yaratish masalalari tahlil qilinadi. Maqola ishlab chiqarish ta'limi amaliyotchi ustalar, pedagoglar va kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun metodik tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, tikuvchilik, ishlab chiqarish ta'limi ustasi, moslashtirilgan o'qitish, raqamli texnologiyalar, kasbiy kompetensiya.

Kirish.

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida har bir insonning mehnat bozorida o'z o'rnini topishi muhim ahamiyat kasb etadi. Imkoniyati cheklangan shaxslar uchun kasb-hunar egallash nafaqat iqtisodiy mustaqillik, balki ijtimoiy moslashuv, o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlash va jamiyat hayotida faol ishtirok etish imkonini yaratadi. Tikuvchilik sohasi texnik murakkablik darajasi past, bosqichma-bosqich o'rganish imkoniyati mavjudligi sababli imkoniyati cheklangan o'quvchilar uchun ayniqsa mos yo'nalish hisoblanadi.

Mazkur jarayonda ishlab chiqarish ta'limi ustasi asosiy yetakchi shaxs bo'lib, u o'quv jarayonini tashkil etish, individual yondashuvni ta'minlash, xavfsizlikni nazorat qilish hamda o'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash vazifalarini bajaradi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash esa ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

1. **Imkoniyati cheklangan o'quvchilarning ta'limiy ehtiyojlari.** Imkoniyati cheklangan o'quvchilar turli jismoniy, sezgi yoki intellektual cheklovlarga ega bo'lishi mumkin. Shuning uchun ularning ta'lim jarayonida quyidagi ehtiyojlar muhim hisoblanadi:

Individual yondashuv: har bir o'quvchining qobiliyati, tezligi, sog'lig'i va psixologik holatini hisobga olgan holda hunar o'rgatish: Vizual va amaliy ko'mak: rangli sxemalar, video darslar, real namunalar orqali tushuntirish. Takrorlash va mustahkamlash: ko'nikmalarni bosqichma-bosqich shakllantirib borishdan iborat.



Date: 23rd January-2026

Imkoniyati cheklangan o'quvchilarni psixologik qo'llab-quvvatlash va ularni rag'batlantirish, ishonchni oshirish, stressni kamaytirishdir.

Ishlab chiqarish ta'lim ustalari o'quvchilarni solishtirishdan ko'ra ularning shaxsiy rivojlanish dinamikasini baholashi lozim.

*Tikuvchilik o'quv amaliyot mashg'ulotlarida harakati tayyanch bo'lgan o'quvchilar —amaliy mashg'ulotlarda amaliy ishlarni bajarishda sekin o'zlashtirishadi, ularni qo'llari titraydi, bajargan ishlari o'xshamaydi, tez bajara olmaydilar, harakatlanishi sekin bo'lishi mumkin shunda, ular oddiy pedagogdan: **"Tezroq qil, boshqalar kutyapti!"** degan so'zlarni eshitishadi.*

*Inklyuziv pedagogdan esa - **"Shoshilma. Seni qo'lingdan keladi. Sen qo'lingdan kelganini qilyapsan. Men yoningdaman."** Degan so'zlarni eshitadi.*

*Natija qaysi biri? O'quvchi bilimni emas, **insoniy munosabatni** eslab qoladi*

Inklyuziv pedagogika. Barcha o'quvchilar teng huquqda ishtirok etadi, diskriminatsiyasiz muhit yaratiladi.

2. Ishlab chiqarish ta'limi ustasining roli va mas'uliyati. Zamonaviy ishlab chiqarish ta'limi ustasining vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi: o'quv dasturini moslashtirish; xavfsiz va qulay ish joyini yaratish; texnik ko'nikmalarni amaliy mashg'ulotlar orqali shakllantirish; jamoada ishlash madaniyatini rivojlantirish; mehnat intizomi va mas'uliyatni singdirish; o'quvchilarning kasbiy yo'nalishini aniqlashga ko'maklashish. Ishlab chiqarish ta'lim ustalari pedagogik mahorat bilan bir qatorda insoniy mehr, sabr-toqat va empatiyaga ham ega bo'lishi zarur.

3. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar. Differensial ta'lim Topshiriqlar murakkablik darajasiga ko'ra bo'linadi. Har bir o'quvchi o'z imkoniyatiga mos vazifani bajaradi.

Kompetensiyaga asoslangan yondashuv-faqat bilim emas, balki real ish bajarish qobiliyati shakllantiriladi: tikish, o'lchash, naqsh tayyorlash, mashina sozlash.

Loyihaviy o'qitish-o'quvchilar kichik mahsulotlar (sumka, fartuk, yostiq jildi) tayyorlaydi. Natija ko'z bilan ko'rinadi va motivatsiya oshadi.

4. Raqamli texnologiyalarni qo'llash-video darslar va animatsiyalar; interaktiv taqdimotlar; elektron andozalar; virtual simulyatorlar; onlayn baholash platformalari.

Bu usullar o'quvchilarning idrokini yengillashtiradi va qiziqishini oshiradi.

5. Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish-Amaliyot quyidagi bosqichlarda tashkil etiladi:

Texnika xavfsizligi bilan tanishtirish. Asbob-uskunalarini to'g'ri ishlatish. Oddiy operatsiyalardan murakkab jarayonga o'tish. Mustaqil ishlar. Natijani tahlil qilish.

6. Motivatsiya va ijtimoiy moslashuv-Rag'batlantirish, ko'rgazmalar, tanlovlar, sertifikatlar o'quvchilarni faolroq bo'lishga undaydi. Jamoada ishlash esa kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantiradi.

Bugun biz bergan dars imkoniyati cheklangan o'quvchilar: ertaga hunarli bo'lishadi, mustaqil hayotga chiqishadi, oilasiga tayanch bo'lishadi. Ular bir kun shunday deyishadi: **"Menga ishongan bir ustozim bor edi..."**



Date: 23rd January-2026

Ana shu ustoz — **biz bo‘lishimiz mumkin.** Har bir kichik qadam: sabr, mehr, tushunish katta natijaga olib keladi. Bizning munosabatimiz — kimningdir kelajagini belgilaydi. Imkoniyati cheklangan o‘quvchilar — bizlarga sinov emasdirlar, balki **omonatdirlar**

7. **Xavfsizlik va ergonomika**-maxsus moslashtirilgan stol va stullar; yoritish va ventilyatsiya; shaxsiy himoya vositalari; doimiy nazorat.

Xulosa-Zamonaviy yondashuvlar imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning kasbiy tayyorgarligini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi. Ishlab chiqarish ta’limi ustalarining bilimdonligi, ijodkorligi va insonparvarligi ta’lim samaradorligini belgilovchi asosiy omildir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

Inklyuziv ta’lim bo‘yicha metodik qo‘llanma. – Toshkent.

Kasb-hunar ta’limi pedagogikasi.

Zamonaviy ta’lim texnologiyalari.

O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni.

Maxsus pedagogika asoslari.

